


TOSHKENT VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)



Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 14 484,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 373,6 mlrd. so'mni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 11 654,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 456,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,1 %) tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi
hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Nurafshon va Ohangaron shahri, Bekobod va Yuqorichirchiq tumanlarida qayd etildi.

**Jami viloyat chakana savdo aylanmasida
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga o'sdi va 1 373.6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,5 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 1654,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


**2018-yil
yanvar-oktabr**



**2019-yil
yanvar-oktabr**



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Oqqo'rg'on tumani (94,2 %), Yangiyo'l tumani (90,7 %), Nurafshon shahri (91,6 %), Yangiyo'l shahri (88,5 %), Bostonliq tumani (87,7 %), Parkent tumani (88,1 %), va Ohangaron (85,5 %), tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (30,2 %), Bekobod shahri (20,7 %), Toshkent tumani (17,8 %), O'rtachirchiq tumani (13,6 %), Yuqorichirchiq tumani (11,0 %), Qibray tumani (10,5 %), Chirchiq shahri (11,3 %), Ohangaron shahri (17,7 %), Olmaliq shahri (12,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalar chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Yirik korxonalar (mln. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1 373 585,4	92,9	11 654 017,0	106,2
Nurafshon sh.	6 419,0	7,6p	468 746,6	143,2
Olmalik sh.	173 759,9	128,7	1 074 204,0	104,4
Angren sh.	47 389,2	125,2	584 304,7	101,7
Bekobod sh.	169 622,8	144,0	597 984,9	97,2
Ohangaron sh.	50 848,7	270,2	190 946,3	110,3
Chirchiq sh.	90 022,1	80,3	611 212,5	111,4
Yangiyo‘l sh.	24 109,0	96,9	638 113,1	101,4
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo‘rg‘on	8 369,2	85,2	553 134,8	105,2
Ohangaron	8 400,5	180,5	184 306,1	102,0
Bekobod	30 981,4	5,7p	284 821,7	100,5
Bo‘stonliq	36 647,8	72,7	569 941,8	104,3
Bo‘ka	18 226,7	96,5	386 861,2	104,1
Quyichirchiq	3 756,4	79,9	208 773,5	102,6
Zangiota	85 596,4	94,6	1 504 599,7	102,8
Yuqorichirchiq	58 158,9	50,0	433 879,6	122,5
Qibray	108 226,2	72,6	771 778,7	110,3
Parkent	21 431,6	104,2	480 212,6	103,8
Piskent	12 192,9	94,4	258 806,7	102,1
O‘rtachirchiq	37 547,7	84,4	217 507,8	106,8
Chinoz	207 387,5	84,1	431 819,8	113,1
Yangiyo‘l	26 867,1	96,5	614 125,7	103,9
Toshkent	147 624,4	97,5	587 935,2	106,5

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	4 970,5	103,0
Nurafshon sh.	10 569,2	139,4
Olmalik sh.	10 488,6	102,7
Angren sh.	4 035,8	101,4
Bekobod sh.	8 652,1	103,0
Ohangaron sh.	7 712,6	104,9
Chirchiq sh.	5 114,1	103,7
Yangiyo‘l sh.	12 033,8	100,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	5 645,2	103,1
Ohangaron	2 273,7	102,1
Bekobod	2 307,5	106,5
Bo‘stonliq	3 870,8	100,6
Bo‘ka	3 762,2	101,0
Quyichirchiq	2 399,9	100,4
Zangiota	9 244,2	101,3
Yuqorichirchiq	3 935,1	103,2
Qibray	5 196,1	102,0
Parkent	3 563,3	101,8
Piskent	3 125,4	100,2
O‘rtachirchiq	1 877,3	101,1
Chinoz	5 184,3	100,1
Yangiyo‘l	3 258,1	101,8
Toshkent	4 637,7	102,8


2019-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 4 970,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Yangiyo'l shahri (12 033,8 ming.so'm), Nurafshon shahri (10 569,2 ming. so'm), Zangiota tumani (9 244,2 ming. so'm) va Olmaliq shahri (10 488,6 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati



Jumladan, 2019-yilning yanvar- oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 %ni tashkil etib, 377,9 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 77,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur‘atlari, (%)




TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 700,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktyabr oylari yakunlariga ko'ra, 3 075,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0 % ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,0 %ni tashkil qilmoqda.

Yirik korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi 46,0 % ni tashkil etdi, nisbatan ulushi katta bo'lgan Ohangaron shahar (100,0 %), Bo'ka (99,9 %), Piskent (99,9 %) va Yangiyo'l (99,9 %) tumanida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	5 700,2	92,8	3 075,9	84,2	2 624,4	104,1
Nurafshon sh.	29,0	101,9	0,1	77,9	28,9	102,0
Olmaliq sh.	124,8	76,4	28,7	41,3	96,1	102,6
Angren sh.	43,5	102,8	0,1	25,8	43,5	103,3
Bekobod sh.	60,9	100,9	0,2	12,7	60,7	103,5
Ohangaron sh.	38,0	102,5	0,0	x	38,0	102,5
Chirchiq sh.	121,3	101,1	7,4	67,1	113,8	104,6
Yangiyo‘l sh.	162,3	105,6	0,4	3,5m	161,9	105,4
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo‘rg‘on	5,3	99,0	0,02	15,5	5,23	101,4
Ohangaron	37,3	102,0	0,3	51,7	37,0	102,7
Bekobod	63,2	2,8m	44,4	11,2m	18,8	98,9
Bo‘stonliq	62,6	83,0	0,7	4,9	61,9	102,1
Bo‘ka	28,4	101,8	0,04	50,1	28,35	101,9
Quyichirchiq	22,3	101,0	0,2	54,6	22,2	101,6
Zangiota	634,7	95,9	28,3	39,2	606,4	102,9
Yuqorichirchiq	108,5	112,6	11,4	7,8m	97,1	102,3
Qibray	1 484,8	98,9	1 229,7	97,9	255,1	103,9
Parkent	92,6	105,3	0,8	6,6m	91,8	104,5
Piskent	56,2	175,0	0,1	12,4	56,2	177,4
O‘rtachirchiq	1 275,0	73,9	1 247,3	73,5	27,8	101,9
Chinoz	504,7	98,9	455,4	98,6	49,3	101,6
Yangiyo‘l	158,8	105,6	0,2	35,7	158,7	105,8
Toshkent	586,0	101,1	20,3	74,6	565,7	102,4

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Bekobod (2,8 marttaga ko'p) va Piskent (175,0 %) tumanlarida, eng quyi o'sish sur'ati esa O'rtachirchiq tumanida (73,9 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**